

22p

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:17 (66974)

2014-yil

28-aprel



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

## TIL BILGANGA KENG DUNYO

Qadrli o'quvchilar! Bugun siz o'g'il-qizlarga til o'rgan, deyishning aslo hojati yo'q. Chunki qay biringizga murojaat qilmaylik, albatta, chet tillaridan birini qunt bilan o'rganayotganingiz haqida to'qinlanib so'zlaysiz. Zero, til bilish dunyoni bilish demakdir. Agarda siz ikki tilni bilsangiz ikki inson, uch tilni bilsangiz uch insonga aylanasiz.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori yurtimiz umumta'lim maktablarida chet tili fanlarini o'qitish tizimini tubdan o'zgartirib, sohada keng ko'lami islohotlarni boshlab yubordi.

(Davomi 2-betda)

## SAN'ATGA SHAYDO YURAK



o. ORIPOV o'lgan suratlar

O'zbekiston Badiiy akademiyasi Markaziy ko'rgazmalar zalida bo'lib o'tgan tasviriy san'at festivalida qatnashib, o'zimizni xuddi ertaklar olamiga tushib qolgandek his etdik. An'anaviy tarzda o'tkazilayotgan mazkur festivalda rassomlik, haykaltaroshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, kandakorlik va metallga ishlov berish, zardo'zlik buyumlari, makrame, gobelen va gilam to'qish kabi ko'plab amaliy san'at turlariga oid qo'lda yasalgan buyumlar namoyish etildi.

(Davomi. Boshi 1-betda)

# TIL BILGANGA KENG DUNYO

Yaqinda poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida Prezidentimizning «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi Qarori asosida tizimda amalga oshirilayotgan ishlar mavzusiga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi mas'ul xodimlari hamda «Kids' English» darsligi mualliflari ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar bilan yig'ilganlarni tanishtirdilar.

Ma'lumki, 2013–2014-o'quv yilidan boshlab yurtimizning barcha umumta'lim maktablarining 1-sinflarida chet tili fanini o'qitish yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra, 533 845 nafar 1-sinf o'quvchilaridan 502 432



nafar trener o'qituvchilar yordamida jami 25 310 nafar chet tili murabbiylari malaka oshirdilar. Shuningdek, 17 222 ta fan kabinetlari o'quv adabiyotlar, lug'atlar va DVD magnitolalar bilan jihozlandi. Umumta'lim maktablarining 1-sinflari uchun yaratilgan 537 786 nusxa chet tili darslik majmuasiga qo'shimcha ravishda o'qituvchilar va ota-onalar uchun o'zbek va rus tilida qo'llanma chop etildi va 1-sinf o'quvchilariga «Prezident sovg'asi» sifatida taqdim etildi.

Har bir tuman, shahardagi bitta umumta'lim maktabida tajriba-sinov tarzida chet tillarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil etildi. Maktabdan tashqari vaqtda chet tillarni o'qitishni yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida va «Barkamol avlod» bolalar markazlarida 2-, 3-, 4-sinflar uchun ingliz, nemis va fransuz tillarini o'qitish bo'yicha 2 soatdan to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi.

*How many fingers do you have  
One, two, three, four, five  
Six, seven, eight, nine, ten  
Let's count them again...*

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 260-maktabda ingliz tili fani bo'yicha tashkil etilgan ochiq darsda bo'lganimizda, 1-«V» sinfining kichkintoylari ingliz tilida 10 gacha sanashni o'rganib olib, uni qo'shiq qilib kuylashayotgan ekan. Jajji bolajonlar bizning sinfga kirganimizni ham sezmay, darsni quvnoq kayfiyatda davom ettirishadi.

– What is this? – It is an apple and I like it.

O'quvchilarning yonib turgan nigohlariga havas bilan boqarkanmiz, ularning bilimga chan-



ota-onalari hisoblanadi. 2013-yilda tajriba-sinovdan o'tkazilgan «Kids' English – 1» darsligida ana shu jihatarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois, 260-umumta'lim maktabida seshanba va shanba kunlari ota-onalar uchun maxsus saboqlar o'tkaziladi. Bunda ota-onalarga bolaning ingliz tilini o'rganishi uchun qanday ko'mak berishlari kerakligi tushuntiriladi.

– Mening oyim ingliz tilini juda yaxshi biladi, u doim menga bilmaganlarimni o'rgatadi, – deydi 1-«V» sinf o'quvchisi Diyora Yo'ldosheva.

Chet tilini o'rganishning o'ziga yarasha mashaqqati bor. Buning uchun o'quvchidan ko'proq o'qish, izlanish talab etiladi. O'z navbatida chet tili fani o'qituvchisining tajribali va chuqur bilim egasi bo'lishi ham maqsadga yetishda muhim vositadir.

**Dinara SHAKIROVA.**  
**Bahodir HALIMOV olgan suratlar**



qoqligi va faolligidan dilimiz yayradi.

– Ayni paytda maktabimizda 2550 nafar o'quvchi tahsil oladi. Har bir o'quvchining o'ziga xos qiziqishlari, intilishlari bor, – deydi maktab direktori Galina Kim. – Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarimiz chet tillarini qunt bilan o'rganishmoqda.

Bilamizki, chet tillarni o'rganishda o'zaro muloqot eng yaqin ko'makchidir. Bu borada kichkintoylarning yaqin hamkorlari, eng avvalo, ularning



nafari ingliz tili, 12 657 nafari fransuz tili, 18 756 nafari esa nemis tili fanini o'rganmoqda.

O'tgan o'quv yilida 144 soatlik malaka oshirish kursi tashkil etilib, 243

## «SOLIQ BILIMLARI – BOLALARGA!»

### Unda 3-sinf o'quvchisi g'olib bo'ldi

Mirjahon bolalikdan rasm chizishni yoqtiradi. Bu safar u chizayotgan rasmi opqali soliq to'g'risidagi tushunchalarini to'liq aks ettirishga harakat qildi. Chunki Mirjahon ishtirok etayotgan «Soliq bilimlari – bolalarga» respublika ko'rik-tanlovining shartlariga ko'ra umumta'lim maktablarining 1–4-sinf o'quvchilari soliq to'g'risidagi tushunchalari aks ettirilgan rasmlar chizishlari, 5–9-sinf o'quvchilari esa soliq mavzusini hikoyalarda aks ettirishlari lozim.

O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasi, Xalq ta'limi vazirligi hamda O'ria maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamkorligida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Soliq bilimlari – bolalarga» ko'rik-tanlovi o'quvchilarning soliq sohasiga oid bilimlarini yanada boyitishga xizmat qilmoqda. Bu yil tanloving Buxoro viloyati bosqichida 48 nafar o'quvchi o'z bilimini

sinovdan o'tkazdi. Natijalarga ko'ra, Buxoro shahridagi 34-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi Mirjahon Islomov, 17-umumta'lim

G'oliblar orasida eng kichigi bo'lgan Mirjahonning rasmi ko'pchilikda katta taassurot uyg'otdi.

– Men maktabimizdagi «Yosh rassomlar» to'garagi a'zosiman. Ustozim Nizom aka Boymurodov bizga doim biror-bir mavzuda rasm chizishdan avval u haqda to'liq tushunchaga ega bo'lish lozimligini uqtiradi. Ushbu tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritishimda ham ularning hissasi katta.

Hali quyi sinf o'quvchisi bo'lishiga qaramay, vaqtini unumli o'tkazishga, o'z iste'dodini namoyon etishga harakat qilayotgan tengdoshingiz mazkur tanloving respublika bosqichida ham muvaffaqiyatli ishtirok etishiga va kelajakda ismiga monand yurtning dovrug'ini jahonga yoyadigan farzand bo'lishiga ishonamiz.

**Sayyora QODIROVA**



maktabining 9-sinf o'quvchisi Sardor Mahmudov, 21-umumta'lim maktabi 6-sinf o'quvchisi Sevil Hikmatova, Buxoro shahar Soliq kolleji o'quvchilari Sobir Namozov va Zarif Kamolov o'z yo'nalishlarida g'olib deb topildi va bellashuvning respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritishdi.

**DO'STLARIMGA SALOM YO'LLAYMAN**



Muhammadaziz Shukurov, Esmeralda Mardonova singari yangi do'stlar orttirdim. Afsuski, ularning faqatgina ismlarini eslab qolibman, xolos. Tengdoshlarimning na uy manzillari, na telefon raqamlarini bilaman. Shunda bo'lsa-da, sevimli nashrim orqali ularga o'z salomimni yetkazmoqchiman. Bilaman, ular ham «Tong yulduzi»ni sevib mutolaa qilishadi. Do'stlarimning kelajakda jonajon Vatanimizga munosib farzand bo'lib voyaga yetishishlariga ishonaman.

Men sportning futbol uriga juda qiziqaman. Shu bois, O'zbekiston Milliy terma jamoasining har bir o'yinini muntazam kuzatib boraman. Futbolchilari-mizning g'alabasidan ruhlanib, shunday jamoamiz borligidan g'ururlanaman.

Bundan tashqari, ona tili va adabiyot fani mening jon-u dilim. Yaqinda shu fan bo'yicha olimpiadaning viloyat bosqichida qatnashib, Sevra Rahmonova,

**Adiba ABDURAIMOVA,**  
Samarqand viloyati,  
Qo'shrabot tumanidagi  
85-umumta'lim  
maktabining 9-«A» sinf  
o'quvchisi

**A'LOCHILAR SINFI**

Bizning sinfga maktabimizda a'lochilar sinfi, deya ta'rif beriladi. Sinf doshlarimning barchasi yaxshi o'qishga, namunali xulq egasi bo'lishga astoydil harakat qiladi. Yaqinda Sabohat ona tili va adabiyot fanidan, Jamol Kamolov matematikadan, Sabrina Bekmurodova ingliz tilidan, men esa rus tili fanidan maktabimizda o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»da g'olib bo'ldik. Shuningdek, ilm dargohimizda qator fanlardan o'tkaziladigan «TX7» musobaqalarida ham sinfimiz o'quvchilari faol qatnashmoqda.

Bizga yaratib berilgan shart-sharoitlarga javoban a'lo o'qishga, kelajakda ona Vatanni sevib ardoqlaydigan o'g'il-qizlar bo'lishga so'z beramiz.

**Mohichehra MUHIDDINOVA,**  
G'ijduvon tumanidagi 49-umumta'lim  
maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi



**OZOD YURT FARZANDLARI**

*Bugun yurtimizda yosh avlodning ta'lim olishi va o'z iqtidorini to'la namoyon etishi yo'lida yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlar tufayli, yoshlarimiz barcha sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.*

Sport inshootlari, musiqa va san'at maktablari, «Barkamol avlod» markazlari farzandlarimizning har jihatdan sog'lom bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilmoqda. Soha rivoji yo'lida qabul qilinayotgan qarorlar, davlat dasturlari bu boradagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirmoqda. Jumladan, Prezidentimizning «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori iste'dodli yoshlarimizga ko'rsatilgan yuksak e'tibor namunasi.

Istiqlol tufayli bizning Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 23-bolalar musiqa va san'at maktabi yangidan qurib bitkazildi va o'quvchilar uchun zarur bo'lgan barcha jihozlar bilan to'liq ta'minlandi. Bunday sharoitda ilm o'layotgan san'atsevar yoshlarimiz tuman, viloyat, respublika miqyosida o'tkazilayotgan ko'plab ko'rik-tanlov va festivallarda g'oliblikni qo'lga kiritmoqda.

Yurtimizdagi bu kabi o'zgarishlarni ko'rib, O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekanligiga yana bir karra amin bo'lamiz va biz pedagoglar kelgusida yosh avlodni komil farzandlar etib tarbiyalash yo'lida bor bilimimizni ayamaymiz.

**Nargiza PO'LATOVA,**  
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi  
23-BMSM direktori



**BILIMDONLAR BELLASHUVI**

Men bo'sh vaqtlarimda viloyat «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazidagi «Jurnalistika va notiqlik» to'garigiga qatnayman. Mashg'ulotlarda ustozimiz Munis opa Adizova mavzularni sodda va ravon tarzda tushuntiradilar. Bu esa bizni jurnalistika sohasiga bo'lgan qiziqishimizni yanada oshirmoqda. Yaqinda «Badiiy nafosat bilimdoni» ko'rik-



tanlovda ishtirok etib, sahnada o'zini tutish, tanlangan mavzuning dolzarbligi kabi shartlardan muvaffaqiyatli o'tib, faxrii 1-o'rinni qo'lga kiritdim. Bu yutug'imda ota-onamning, shuningdek, ustozlarim Rohila Otayeva, Mavjuda Jamolova, Rohat Hayitova, Zulxumor Hayitovaning xizmatlari beqiyos. Endilikda tanlovning respublika bosqichiga hozirlik ko'rmoqdaman.

**Nafosat DAVLATOVA,**  
Buxoro viloyati, Vobkent  
tumanidagi 28-umumta'lim  
maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

Salqin havo etni junjiktiradi. Shamol esib, to's-to'polon boshlanadi. Momaqaldiroq gumburlaydi, yomg'ir shivalaydi. Qushlar pana joy izlab chug'urlashadi. Qaldirg'ochlar qanotlarini ko'lmaklarga tekizib uchadi: goh pastlab, goh balandlaydi.

Yomg'ir quya boshlaydi. Quloq tutsangiz boshqa ovozlarni tinib, yomg'irning shitiriga kuch kiradi. Osmon bilan yer sirlashayotgandek. Sukunat, jimlik, osmon-u yerning qulog'i birlashgan. Ularni hech kim bezovta qilmaydi: uz-o-oq suhbatlashadi. Keyin shabada esib, yomg'ir tinadi. Iliq havo yeladi. Quyosh ko'rinib, osmon kamalakrang ko'ylagini kiyadi. Bolajonlarning quvonchi qo'shiqlarga aylanadi:

*Oftob chiqdi olamga,  
Yugurib bordim xolamga.  
Xolam aytdi bir cho'pchak,  
Har cho'pchagi belanchak.*

Aziz bolajon, bu qaysi fasl, deb so'rashning keragi yo'q. Ha, u betakror bahor ekanligini allaqachon bilib olgansiz. Siz fasllarni, sanoqlarni, do'stlaringizni adashtirmaysiz. Orzularingizni orzular ummonidan tutib olasiz. Yuragingizda ardoqlab, qiyosini hech narsaga tengolmaysiz. Otangizning kasbiga mehr qo'yib, onangiz ishlaridan quvonganingizda, ko'nglingizga orzu kirib kelgan edi...

**OYDAN BALAND ORZULAR**



Bolalik bекatlarida esa o'ylaringiz bo'y cho'zib boradi...

– Mening orzum juda katta, – deydi Jahongir. – Bir nechta tilni o'rganish, dunyo kezish...

Endigina maktabga chiqqan Bahrom esa akasi-

ning gaplarini eshitib, onasini savolga tutadi:  
– Orzularning ham katta-kichigi bo'ladi? U dengizdaymi yo osmondan ham baland?

Ona miyig'ida kulib qo'yadi:

– Oydandan ham baland, o'g'lim. Ilm unga yetishing uchun narvon, bolam...

\*\*\*

Risolat har kuni keng uyni egallab, yangi dizayn ustida ishlaydi. Singlisi Asolat esa bog'chasiga yangi urfdagi ko'ylak kiyib borgisi keladi.

– Unga tegma, bunga tegma, hali kichkinasan, – deydi opasi.

– Men esa tezroq katta bo'lgim keladi, – deydi qizaloq.

– Orzularing oydandan baland bo'lishi kerak, qizalog'im! – ona uni bag'riga yana ham qattiqroq bosadi...

Kimdir shifokor, o'qituvchi, bastakor, haykaltarosh, hunarmand, kulol bo'lgisi keladi. Asrlardan sado berguvchi kasb-u korni e'zozlab, aziz bo'ladi.

Bularning barchasiga orzu yo'l soladi. Unda yurganing sayin so'qmoqlar ochilib, yo'llar kengayadi. Har sohaning ustasi bo'lish uchun har laha o'rganish, izlanish darkorligini takrorlab turadi.

Oydandan baland orzular dunyoga yuzlashaveradi.

**Dilfuza SHOMALIKOVA**

# MAKTUBLARDA KO'KILAM QUVONCHI

*Bahor o'zining begiyos go'zalligini bortiqa tarannum ayladi. Olam yam-yashil tibozga burkandi.*

*Yer yuzidagi jamiki tirik mavjudot jonlandi. Botarlarning g'isillat damodam g'unchalarning dudog'idan bol yig'ishi-yu kuychi bulbutlarning ohanrabodek sehrli navosidan ko'ngillar yayraydi.*

*Beg'ubor bolalikning zavqli onlarini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Umrimizning eng go'zal davri bo'lgan bolalikni eslab chuqur o'g'ya tolamiz. Bugungi davr-u zamonda farzandlarimiz uchun davlatimiz tomonidan yaratilgan cheksiz imkoniyatlardan qalbimiz faxr-iftizorga to'ladi.*

*Yurtboshimizning: «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari sharti», deya g'ururlanib ayilgan so'zlari zaminida yurtning kelajagi, millatning taqdirini ishonchli qo'llarga topshirishdek ulkan vazifa turganligini his etamiz.*

*Bortiqa she'riyatga shaydo bo'lgan o'quvchilarimiz nigohi bilan qarasak, ko'nglimiz yanada yorishadi.*

*Keling, lahririyatimizga kelgan she'rarga ko'z yugurtiramiz:*



*Erkalanar barra maysalar,  
Misli go'dak sochidek mayin.  
Yomg'irlarda cho'milib o'sar,  
Go'zallanar daqiqa sayin...*

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Mohinur Abdusattorovanning «Maysalar» nomli she'rida bahorning kelishi-yu maysalarning yomg'irlarda cho'milib yastanishini dildan his eta olganiga amin bo'lamiliz. Shunga o'xshash rangli satrlarni Andijon davlat universiteti qoshidagi akademik litseyning 1-bosqich o'quvchisi Go'zaloy Abdullayevaning «Bahor tongi» she'rida ham uchratamiz:

*Gullarga berildi yashash unvoni,  
Zulmatni quvlashga ochar qarshi lab.  
Ishonchning qo'lidan tutgan bu zamin,  
Bahorning sof tongin oldi qarshilab...*

Bahorning musaffo tonglarini ona zamin iliq qarshi olishini Go'zaloy singlimiz o'z she'rida go'zal etib ta'riflaydi.

Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Gulbahor Mirzag'aniyeva o'zining «O'rik gullari» nomli she'rida shoir Muhammad Yusufni xotirlab shunday yozadi:

*Mendan har gal so'rar lolaqizg'aldoq,  
O'tsam to'sar edi goho yo'llarim.  
Uning chehrasida ming yillik ardoq,  
Olsam o'par edi unsiz qo'llarim.  
Muhammadsiz bedor uning tunlari,  
Pokiza hislarda o'rik gullari...*

Namangan viloyati, Mingbuloq tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Madina Mutalipovanning «Mustaqillik» deya nomlangan she'ridagi beg'ubor satrlardan ham ko'nglimiz yayraydi:

*Bu bag'ri keng Vatanda,  
Ozod qushchaman.  
Vatanimga, elimga,  
Sodiq qizchaman...*

Xuddi shunday go'zal satrlarni Madina bilan bir maktabda tahsil olayotgan Dilnoza Abdul-

hamidovanning «Buvijonim», «Ustozim» nomli she'rlarida ham uchratish mumkin. Shuningdek, Zarafshon shahridagi 10-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Dinora Sodiqovanning «Mehrdan yaralgan ekan bu dunyo» she'ri ham dilga yaqin. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 223-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Durdona Bahromova o'zining «Yashil yaproq» she'rida yaproqni mitti bayroqqa qiyoslaydi:

*Yaproq'im bor daraxtda,  
Turli xil rang beradi,  
Uni qo'lga olganda,  
Mitti bayroq bo'ladi...*

Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Charos Hakimova ham singlisiga atab go'zal she'r yozibdi:

*Jajjigina sho'x, quvnoq,  
Sochi qop-qora siyoh.  
Chaqnar yulduz ko'zida,  
Ma'no bor har so'zida,  
Bu mening go'zal singlim.*

Shuningdek, Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Kumushbib Toshmirzayeva «Gullarim» she'rida gulzorga quyidagicha ta'rif beradi:

*Gulzora'dagi turfa gullarim,  
Xushbo'y isin taratib turar.  
Yonlariga borgan chog'imda,  
Quvonchini yashirmas ular...*



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Bekzod Aripovning satrlarini o'qigach, samoni to'ldirib uchgan varraklar ko'z oldimizdan o'tadi:

*Bir-biridan osmonni qizg'angandek,  
Ko'kka parvoz aylar «quvnoq» varraklar...*

Shuningdek, Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 9-sinf

o'quvchisi Gulchehraxon Abdudzayeva o'z she'ri orqali tengdoshlarini bilim olishga undaydi:

*Tengdosh, fursat g'animat,  
Bugun chuqur bilim ol.  
Kelajakda xalq uchun,  
Metin qalqon bo'lib qol...*

Biz har gal ijodkor o'quvchilarimizning bir qator bo'lsa ham yaxshi satrlarni ko'zdan qochirmaslikka harakat qilamiz. Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Ra'no Ro'zmonovanning «O'zbekiston», Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Jannatxon O'rmonovanning «Samarqand», «Bobur», Elnora Rasulovanning «Bolalik sog'inchi», Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 85-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Mahliyo Tongotarovanning «Vatan», Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 15-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Dilfuza Shodimatovanning «Handalak», «Na'matak guli», «Bahor» nomli she'rlarida ham yaxshi satrlar borligiga guvoh bo'ldik.

Gohida ijodkor o'quvchilarimiz yurakka sig'magan his-hayajonlarini shoshma-shosharlik bilan mana sizga «she'r» deya yuborishadi.

Biz yaxshi bilimizki, har qanday jo'n so'zlar yig'indisi she'r bo'lmaydi. Ohang o'quvchining qalbini jizillatmas ekan, demak, uni she'r deb atash noto'g'ri.

Bizga maktub yo'llagan o'quvchilarimizdan farg'onalik Avazbek Mo'minov, Ruxanaxonim Qoziboyeva, Nigora Sotvoldiyeva, Sarvinoz Mansurova, Gulnoza Abduzokirova, qashqadaryolik Aziza G'ayratova, Elmira Murodillayeva, Dilfuza Norqulova, Madina Allaberdiyeva, Sherzod Umrzoqov, Aziza O'lmasova, samarqandlik Xolida Rustamova, Asaloy Fayzullayeva, Iqboloy Narzullayeva, sirdaryolik Iroda Suyunova, Ibrohim Mardonov, toshkentlik Marg'uba Komilova, qoraqalpog'istonlik Sharofiddin Sapparboyev, navoiylik Muharram Shokirova so'zlar ustida ko'proq ishlashlari talab etiladi.

*Ijod qilishdek yuksak mas'uliyatni zimmangizga olibsizmi, unga hech qachon befarq bo'lmang, ko'proq mutolaa qilish, izlanish va borliqning rang-barangligidan bahra olish uchun uni dildan his etishingizni tilaymiz. She'riyatning zalvorli yuki, tolli onlari, og'ir vazifasi sizga hamisha yor bo'lsin, deymiz.*

AXTAMQULI

# MEHR BULOG'I

Poytaxtimizning eng so'lim maskanlaridan biri «SOS – bolalar mahallasi» haqida eshitgan bo'lsangiz kerak. Bugun ana shu yerda istiqomat qilayotgan tengdoshlaringiz haqida hikoya qilamiz.



Mahalla hududiga kirishgiz bilan ko'm-ko'k maydonlar, mevali va manzarali daraxtlarga ko'zingiz tushadi. Bu maskandagi o'n to'rtta xonadonning tevarak-atrofi chiniddek toza, ko'rib dilingiz ochiladi.

Biz dastlab besh nafar farzandni voyaga yetkazayotgan Muyassar opa Haytimbetova xonadonida bo'lib, u yerda kamol topayotgan bolalar bilan suhbatlashdik. Oilaning to'ng'ich farzandi Irina

Usmonova poytaxtimizdagi 49-umumta'lim maktabining 9-«A» sinfida o'qirkan. Biz u bilan yozuvchi Muhammad Alining «Amir Temur solnomasi» asarini mutolaa qilayotgan chog'ida tanishdik.

– Meni bu asar o'ziga mahliyo etdi, – deydi Irina mo'jaza gina kitobni bag'riga bosarkan. – Ayniqsa, kitobni mutolaa qilarkanman, zukko, oqila va bunyodkor Bibixonim siymosi ko'z oldimda gavdalangandek bo'ldi.

Irina bilan maktabdagi yutuqlari haqida gaplashib turgan chog'imiz uning singlisi Anastasiya ham yonimizga kelib, suhbatga qo'shildi. U opasi o'qiydigan maktabning 6-«V» sinfida tahsil olar ekan.

– Ingliz tili, fizika, tarix fanlari jon-u dilim, – deydi Anastasiya Usmonova. – Bo'sh vaqtlarimda mahalla hududida faoliyat yuritayotgan raqs to'garagiga qatnab, milliy raqslarimizni qunt bilan o'rgan-yapman. Shuningdek, ona tabiat, mehr-oqibat, tinchlik, do'stlik kabi mavzularda rasmlar chizish menga juda yoqadi.

– Bola tarbiyasiga jiddiy yondashish kerak, – deydi Muyassar opa. – Men farzand-

larimni ilmi, iymon-e'tiqodli, yurtga sadoqatli inson bo'lib kamolga yetishlarini istayman. Ularni mustaqil hayotga, o'z haq-huquqlarini mukammal bilishga o'rgataman. Yaxshi tarbiya olgan inson hayotda sira qiynalmaydi.

Mahalladagi oilaviy g'amxo'rlik dasturi koordinatori Shuhrat aka Sirojiddinov bilan bolalarning dam olishlari, madaniy va ma'rifiy tadbirlar haqida suhbatlashib, ushbu yo'nalishda ham ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilganiga amin bo'ldik. Eng quvonarlisi, davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlarga javoban mahalla bolalari ta'lim, sport va san'at sohalarida ulkan yutuqlarga erishib, yaqinlari, ustozlari ishonchini oqlamoqda. Zero, bu ezgu ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham shu, aslida.

Yusuf ABDULLAYEV.  
Muallif olgan surat

## Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

### MY ROOM (Mening xonam)




Fill in the following crossword and find the room equipments

**Down**

- 3. It wakes us every morning.
- 4. We sit on it.
- 6. It lights our room.
- 9. A table for writing or reading.
- 11. A large electronic machine.

**Across**

- 1. We sleep on it.
- 2. We put there our clothes.
- 5. We save our books in it.
- 7. It lays always on the floor.
- 8. A painting on the wall.
- 10. On the bad, for the head.



#### English tongue twisters (Tez aytishlar)

I slit a sheet a sheet I slit  
And on that slitted sheet I sit.  
Twelve twins twirled twelve twigs.

#### Riddles (Topishmoqlar)

I am round like an apple  
Flat as a chip.  
I have eyes,  
But,  
I can't see one bit



What has a neck,  
but no head?



O'zDJTU talabasi  
Dinara SHAKIROVA tayyorladi

## SINFDOHLAR MUSHOIRASI

Inson bolalikdan borliq bilan hamnafas bo'lib yashaydi. Qo'shiq aytadi, rasm chizadi, she'r yozadi... Taniqli ijodkorlarga havas qilib, ulardek bo'lishni orzulaydi. Bu orzu-havas uning o'zi bilan barobar ulg'aya borib, aniq maqsadga aylanadi. Boladagi ishtiyoq o'z vaqtida payqalsa, to'g'ri yo'naltirilsa, haqiqiy ijodkor bo'lib kamol topadi. Qalbi go'zal va ezgu tuyg'ularga esh bo'ladi.

Kulol bir hovuch tuproqdan mo'jiza yaratsa, musavvir turfa xil bo'yoqlar vositasida go'zallikni tasvirlaydi. Adabiyotga, she'riyatga oshufta insonlar esa dil so'zlarini, qalbidagi his-hayajonini so'z orqali o'quvchiga yetkazishga intiladi. Ijodga havasmand o'g'il-qizlar nafaqat o'z ota-onasi, oilasi, balki kamol topayotgan mahallasi, ta'lim-tarbiya olayotgan bilim maskanining ham faxri, iftixori sanaladi.

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabida ana shunday ijodkor o'quvchilar talaygina. Mazkur dargohning o'z san'atkorlari, rassomlari, sportchilari, shuningdek, shoirlari ham bor. Bugun e'tiboringizga shu maktabning 7-«YE» sinfida tahsil olayotgan ijodkor qizlarning she'riy mashqlaridan havola qilamiz.

### U BORKI, VATAN OBOD

Aziz, qadri so'zlar,  
Juda ko'pdir dunyoda.  
Lek shunday bir ne'mat bor,  
Barchasidan ziyoda.

Tinchlikdir uning nomi,  
U borki, Vatan obod.  
Bexavotir yashaydi,  
Keksalar-u yosh avlod.

Saodat AHMEDOVA



### DUNYODA TINCHLIK BO'LSIN!

Bir mo'jiza ro'y berib,  
Sehrgar bo'lib qolsam.  
Barcha yomon illatni,  
Dunyodan quvib solsam.

Agar sehrgar bo'lsam,  
Barcha baxtli bo'lardi.  
Dunyoda tinchlik bo'lsa,  
Mitti ko'nglim to'lardi.

Aqida XALILBOYEVA



### SHAMOL

Mayin, iliq shabada,  
Yurtim bo'yab kezib yur.  
Gul-chechaklar iforin,  
Atrofga taratib tur.

Shamol, hoy, bebosh shamol,  
Balandlab samoni quch.  
Varraklar qanotida,  
Orzularim olib uch.

Maftuna MIRDADAYEVA

### MAKTABIM

Maktabimiz bag'riga,  
Har tong shoshib boramiz.  
Bilimlar dovonidan,  
Oshib-oshib boramiz.



Ustozlar o'g'il-qizga,  
Bilim, mehrini tutar.  
Ishonaman, bizlarni  
Nurli manzillar kutar.

Gavhar MAHMUDOVA

### MEN SHIFOKOR BO'LAMAN

Men shifokor bo'laman,  
Dilni obod qilaman.  
Shifokorlik kasbi zo'r,  
Buni yaxshi bilaman.

### TARIXNI O'RGANAMIZ

Tariximiz o'rganib, buyuk inson bo'lamiz,  
Kelajakda Vatanga, kerak inson bo'lamiz.  
Tarix zarhal harfda, qo'shiq bo'lib taralgan,  
To'maris va Shiroqning navosidan yaralgan.



Shahzoda QO'SHABOYEVA,  
Buxoro viloyati, Olot tumanidagi  
31-fizikaga ixtisoslashgan maktab  
internatining 6-sinf o'quvchisi

## SEHRLI TAYOQCHA

(Hikoya)



Tanishib olsak, mening ismim Sirojiddin. Sinfimizdagi a'lochi o'quvchilardan biriman. Sizlarga aytсам, sportning futbol turiga qiziqshim juda baland. Maktabimizda sinflararo o'tkaziladigan musobaqalarda faol ishtirok etaman. Darsdan keyin «Paxtakor» klubi qoshidagi futbol mashg'ulotlariga ham qatnayman.

Bir kuni tengqurlarim bilan qaysidir jamoaga mag'lub bo'ldik. Uyg'a kel-dim-u, charchaganimdan uxlab qoldim. Shunda ajoyib bir tush ko'ribman.

Tushimda ka-t-ta bir yo'lda ketayotgan emishman. Bir payt oyog'im ostida g'alati tayoqcha yotganini ko'rib, taqqa to'xtab qoldim. Shu payt qayerdandir:

– Salom, Sirojiddin! – degan ovoz keldi.

Qarasam, yonimda hech kim yo'q. Qo'rqqanimdan tayoqchani qo'limga oldim. Shunda dabdurustdan u tilga kirib:

– Sirojiddin, men oddiy emas, sehrli tayoqchaman. Sening zo'r futbolchi bo'lishingga ko'maklashvorsam, nima deysan? – deb qolsa bo'ladimi...

Bu gapdan xursand bo'lib ketdim. Lekin tayoqchaga: «Men bu holimda qanday qilib zo'r futbolchi bo'laman, axir bo'y-bastim ham, kuchim ham o'ziga yarasha-ku», dedim hayron bo'lib.

Shu gapni aytdim-u, ko'zimni bir ochib-yumsam, yigirma yoshli yigitga aylanib turibman-da...

Xullas, tayoqcham bilan «Paxtakor» jamoasi tomon yo'ldik. U yerda ko'rikdan o'tib, klubga qabul qilindim.

Bu yog'iga voqealar tezlashib ketdi: hali u, hali bu stadionda, minglab muxlislar olqishlari ostida ketma-ket g'alabalarga erishamiz, deng. Vaqt o'tgan sari respublika, keyin Osiyo, so'ngra jahonning eng yaxshi futbolchisi degan nonga ham sazovor bo'ldim. Mashhur bo'lib ketganimdan keyin hech kimni pisand qilmay qo'ydim. Axir kimsan, Sirojiddinman-da!..

Bir kuni muxlislarga navbatdagi intervyuni berayotganimda, jurnalistlardan biri bunday yutuqlarimning siri nimada ekanligini so'rab qoldi. Ana shunda men: «O'z ustimda tinmay ishlagandim, uyqu va halovatning bahridan kechib, tun-u kun mehnat qildim», dedim. Intervyu tugagach, tayoqcham: – Sirojiddin, nega yolg'on gapirding, axir mening yordamimsiz bunday natijalarga erisha olmasding-ku, – dedi o'pkalab.

Men esa unga jahl aralash «Sensiz ham zo'r futbolchi bo'la olardim. Sen nimsan o'zi, oddiy bir tayoqsan-ku», deb yubordim. Gapiim tugar-tugamas tayoqcha osmonga uchib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shunda men ham uyg'onib ketibman...

Bu tushim mazmunidan shuni angladimki, inson mehnat va mashaqqatsiz hech nimaga erisha olmas ekan. O'z ustida ishlashdan qochmasligi, sinovlardan cho'chimay, maqsad sari olg'a intilishi lozim ekan.

Xurshid RAHMON,  
poytaxtimizning Hamza tumanidagi  
145-umumta'lim maktabining  
8-sinf o'quvchisi

# BEKTEMIR - JAHON CHEMPIONI

Gazetamizning o'tgan sonida Bolgariyaning Sofiya shahrida boks bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tayotgani haqida xabar bergan edik. Kuni kecha ushbu nufuzli musobaqa yakuniga yetib, g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Quvonarlisi, yosh charm qo'lqop ustalarimiz ham jahon chempionatida o'zlarining nimalarga qodir ekanliklarini namoyish etib, yakunda 1 oltin, 1 kumush va 2 bronza medalini qo'lga kiritdilar.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, Istiqlol yillarida mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga alohida g'amxo'rlik ko'rsatilmog'da. Farzandlarimizni mard, imon-e'tiqodi mustahkam insonlar etib tarbiyalash yurtidosh-



larimizning muqaddas burchiga aylandi. Natijada, yoshlarimiz ta'lim, sport, san'at sohalarida o'z iqtidorlarini ko'rsatib, xalqaro musobaqalarda, ko'rik-tanlovlarda, olimpiada va san'at festivallarida g'oliblikni qo'lga kiritmoqdalar. So'zimiz isboti sifatida boks bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi bu galgi jahon chempionatida yosh bokschilarimizning qayd etgan natijalarini misol qilib keltirish mumkin.

Jumladan, 69 kilogramm vazn toifasida umidli bokschimiz Bektemir Meliqo'ziyev xorvatiyalik raqibi Luka Prendjaka bilan oltin

medal uchun final jangida ringga ko'tarildi. Shunisi e'tiborliki, yurtidoshimizning bu galgi raqibi juda kuchli bo'lib, u jahon chempionatidagi har bir jangida raqiblarini katta ustunlik bilan mag'lubiyatga uchratib kelayotgan edi. Buni inobatga olgan holda jamoamiz murabbiylari Bektemir bilan final jangi oldidan xorvatiyalik bokschingin kuchli va zaif tomonlarini astoydil o'rgandilar. Bu omil esa hal qiluvchi bahsda yosh bokschimizga katta yordam berdi.

Yorqin va shiddatli kechgan bellashuv yakunida Bektemir Meliqo'ziyev 29-28, 30-27, 29-28 ochkolar nisbati bilan zafar quchib, jahon chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, 49 kilogramm vazn toifasida final jangida ringga ko'tarilgan o'zbekistonlik Sulaymon Latipov qozog'istonlik Shalkar Ayxunbayev bilan kuch sinashdi. Sportchimiz musobaqaning so'nggi jangida bor imkoniyatini ishga soldi, lekin yakunda omad Shalkarga kulib boqdi. Shunday qilib, Sulaymon Latipov jahon chempionatining kumush medali bilan taqdirlandi.

Yana ikki nafar bokschimiz musobaqada bronza medalini qo'lga kiritdi.

S. TURSINOV

# MEHRIBON MURABBIY



Ayni paytda o'sib kelagotgan yosh avlod o'rtasida sportning suzish turi lobora ommaviylashib bormog'da. Suzish bilan shug'ullanayotgan bolalarga kizakli ko'rsatmalarni berish, ularga ushbu sport turining sir-sinoatlarini o'rgatishda, tabiiyki, murabbiylarning o'rni bezqiyos.

Nodira Rajapova Xorazm viloyati Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli 1-bolalar va o'smirlar sport maktabida faoliyat olib borayotgan jonkuyar sport murabbiylaridan biri. Ayni paytda uning qo'l ostida 80 nafardan ortiq qizlar mahorat saboqlarini o'rganib kelmoqda. Ustozning shogirdlari orasida viloyat hamda respublika miqyosida o'tkazilgan musobaqalar sovrindorlari talaygina.

Jumladan, 2013-yil poytaxtimiz mezbonlik qilgan O'zbekiston ochiq chempionatida erkin usulda suzish bo'yicha Shahrizoda Sapayeva, Bibihojar Rahimboyeva, Mehriniso Qo'ziyeva, Madina Qadriyeva muvaffaqiyatli ishtirok etib, faxrli 3-o'rinni egalladilar.

Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida bolalarning maktabdan tashqari bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berilgan. Ko'zni quvnatuvchi shinam va zamonaviy sport majmualarida shug'ullanayotgan bolalarga ularning yorqin kelajagiga chin ma'noda havas ko'zi bilan qaraymiz. Ular baxtli va barkamol avlod vakillari, ertamiz egalardir.

Mahmudjon AZIMOV

Poytaxtimizda shaxmat bo'yicha o'smirlar va qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionatining beshinehi tur bahslari yakunlandi.



# FIKRLASHGA UNDAGAN ONLAR

O'n ikki yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasida mag'lubiyatsiz dona surayotgan xorazmlik Nodirbek Yoqubboyev beshinchi turda poytaxtlik Shamsiddin Vohidov bilan durang o'ynadi va 4,5 ochko bilan peshqadamlik qilmoqda. Qashqadaryolik Abdumalik Abdusalimov andijonlik Shohamir Tojiboyevni mag'lubiyatga uchratib, ochkolar soni bo'yicha Nodirbekka yetib oldi. Shamsiddin Vohidov 4 ochko bilan kuchli uchlikda bormog'da.

Qizlar o'rtasida poytaxtlik Sitora Nazarova samarqandlik Zebo Usmonovani yengib, besh ochko bilan birinchi o'ringa ko'tarildi. Samarqandlik Diyora Sharipova ikkinchi, Zebo Usmonova uchinchi pog'onani egallab turibdi.

O'n sakkiz yoshgacha o'smirlar o'rtasida Toshkent viloyati vakili Alisher Begmurodov birinchi o'rinda bormog'da. Iqtidorli shaxmat-

chi beshinchi partiyada poytaxtlik Ortiq Nig'matov ustidan g'alaba qozonib, ochkolarini 4,5 taga yetkazib oldi. Alisherdan yarim ochko ortda borayotgan samarqandlik Alixon Guseynov ushbu turda qashqadaryolik Javohir Otoboyevni mag'lubiyatga uchratdi. Ortiq Nig'matov 3,5 ochko bilan uchinchi o'rinni band etgan.

Qizlar o'rtasidagi eng qiziqarli bahs musobaqa peshqadami navoiylik Mohinur Qahramonova va shaxmat bo'yicha jahon chempionati sovrindori toshkentlik Bahora Abdusattorova o'rtasida kechdi. Qora donalarda o'ynagan navoiylik yosh sportchi raqibasini yengib, 4,5 ochko jamg'ardi.

Samarqandlik Farida Xursanova 4 ochko bilan ikkinchi o'rinda borayotgan bo'lsa, xorazmlik Nilufar Yoqubboyeva samarqandlik Shahnoza Tursunovani yengib, uchinchi o'ringa ko'tarildi.

Shoh MUHAMMAD

**ZAG'IZG'ON**

Taqinchoqqa juda o'chman,  
To'ymayman.  
Ko'rib qolsam sovunni ham  
Qo'ymayman.



**JONIVORLAR OLAMI**

**CHUVALCHANG**

Qarmoqqa ilinvolib  
Kutaman.  
So'ngra laqma baliqni  
Tutaman.



**BOYO'G'LI**

Sichqon tutishga  
Kerak zo'r toqat.  
Toqati yo'qlar,  
Qolar beovqat.



**O'RDAK**

Men g'ozlarga hayronman,  
«G'o-g'»laydi tinmasdan.  
G'oz yurishar gerdayib,  
Tayinli ish qilmasdan.

**ECHKI**

Taka o'g'lim suruvga,  
Bosh bo'ldi-ku, og'ayni.  
Menga bo'yin egmasa,  
Chaqir qo'chqor tog'angni!



**G'OZ**


Tumshug'im sarg'ish-qizil,  
Patim kulrang, qo'ng'ir, oq.  
Suvdan quruq chiqdim, deb,  
Qo'shiq aytaman quvnoq.

**OLMAXON**

Nomim qiziq - Olmaxon,  
Olmani xush ko'rmayman.  
Lekin shirin yong'oqni,  
Chaqib sira to'ymayman.



Bahrom AKBAROV



**Farangizning MO'JAZ GULLARI**

Farangiz Baxtiyorova poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 4-«A» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Bo'sh vaqtda rasm chizishni yoqtiradi. U O'rol Tansiqboyev, Chingiz Ahmarov kabi mashhur rassomlarning ijodini kuzatib, ulardan zavqlanadi. Ana shunday damlarda o'zi ham beixtiyor qo'liga



mo'yqalam oladi. Daraxtlar, qushlar, gullarning rasmini chizadi. To'g'ri, hali u chizgan rasmlarda kamchiliklar ko'p. Ammo Farangiz o'z ustida tinimsiz mehnat qilsa, ijodning mashaqqatidan cho'chimas, kelajakda mohir rassom bo'lib yetishishiga ishonchimiz komil.

MANZURA

**Bilasizmi??**

Bugungi sahifamiz orqali ko'zlari munchoqqina, yoqimtoygina, ammo ignalari o'tkir bo'lgan tipratikan haqida ma'lumot beramiz.

Tipratikan sut emizuvchilar turkumiga mansub hasharotxo'r jonivor bo'lib, uning o'n beshga yaqin turi fanga ma'lum. Bu jonivor Yevropa, Osiyo va Afrika hududlarida keng tarqalgan. O'zbekistonda esa quloqdar va qora ignali tipratikanni uchratish mumkin. Quloqdar tipratikaning tanasi uzunligi 20 santimetrgacha yetadi. Uning quloqlari uzun ekanini



nomidan ham bilib olishingiz mumkin. Qora ignali tipratikaning tanasi uzunligi ham yuqoridagi «qarindosh»inikiga o'xshash bo'lib, uning uch-to'rt santimetr uzunlikdagi o'n olti mingga yaqin ignasi bo'ladi. Bu ignalar esa uning himoya vositasidir. Shunday himoya quroli bo'lsa-da, xavfni sezgan zahoti tipratikan boshini berkitib, sharsimon shaklga kirib oladi. Bunga qanday qilib erishadi ekan, deya o'ylayotgan bo'lsangiz kerak-a? Gap shundaki, bu jonivorning teri osti muskullari yaxshi rivojlangan bo'lib, ularni osongina qisqarishi orqali tanasi sharsimon shaklga kiradi.

U odatda uch yildan besh yilgacha hayot kechiradi.

ZUBAYDA tayyorladi

**XANDALAR VITAMINLAR KO'P EKAN**



- Allo, assalomu-alaikum, dedajon. Uyg'a kelgapsizmi?  
- Ha, oppoq qizim, hozir boraman.  
- Kelishingizda Anvar akaaning do'koniga ham kirib o'ting.  
- Mena, qizim?  
- Menga shifokorlar vitaminli ovqat gegin degishdi, aytishlaricha, mazqagmoqda vitamin juda ko'p bo'lmish...

**YAXSHI BAHOLAR TUGAGACH...**

- O'g'lim, kundaligingda «gomon» baholar ko'payib ketibdi-ku, - debdi dedasi o'g'liga.  
- Ustozimiz meni har doim «yaxshi» baholar tugaganidan keyin ko'rib qoladilar-da, - debdi Sardor ranjigan ohangda.

AZIZA tayyorladi



Bosh muharrir  
**Feruza ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

28-aprel 2014  
TAHRIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib),  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir  
Axtamqul KARIMOV  
Rassom  
Feruzbek KAMOL o'gli  
Dizayner  
Olovuddin ORIPOV

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 53299  
Buyurtma N: J 9759

Muassislar:  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi  
Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondi.